

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Shermuhammadov, B.Qurbonova	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
T.Egamberdieva, N.Gafurova	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari	13
N.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari	17
I.Siddiqov	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida	21
M.Barakayev, X.O'rinov	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlar.....	26
X.Umarov	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari	31
N.Xodjibolayeva	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati	39
S.Uraimov	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili	44
D.Malikova	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
A.G'ofurov	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
I.Sharofutdinov	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish	59
J.Qurbonov	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
M.G'ofurova	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari	69
G.Maxsudova	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati	74
V.G'aniyeva	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi	78
Sh.Karimova	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi	82
F.Raximova	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari	85
D.Rafikova, Z.Ibroximova	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
U.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari	92

**TA'LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING
AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

**РАЗВИТИЕ АКМЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В
УСЛОВИЯХ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**DEVELOPMENT OF ACMEOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE EDUCATORS IN
THE CONDITIONS OF INFORMATION EDUCATION**

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li¹

¹Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

– Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyalarini shakllantirish orqali ularni o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otish, jamiyatdagi turli islohotlarni rivojlantirish to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье высказаны мнения о формировании акмеологических позиций будущих педагогов в высших учебных заведениях, повышении их активности в образовательном процессе, пробуждении чувства ответственности за избранную профессию, разработке различных реформ в обществе.

Abstract

In this article, opinions on the formation of acmeological positions of future teachers in higher education institutions, to increase their activity in the educational process, to awaken a sense of responsibility for their chosen profession, and to develop various reforms in society.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, raqamli iqtisodiyot, akmeologik pozitsiya, innovatsion va raqamli, bozor iqtisodiyoti, ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: социально-экономическое, самостоятельное образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, цифровая экономика, акмеологическая позиция, инновационно-цифровая, рыночная экономика, образование и обучение, научно-методическая.

Key words: socio-economic, independent education, modern outlook, social necessity, digital economy, acmeological position, innovative and digital, market economy, Education and training, scientific-methodical.

KIRISH

Dunyoda innovatsion rivojlanishning global vazifalaridan biri insonlarda kreativlik qobiliyatini shakllantirishdir. Bunda yangi tajribalar yaratish, murakkab jarayonlarda yechim topa bilish, kasbiy faoliyatga ijodiy yondashish, oqilona tavakkalchilikka bo'lgan qobiliyat, kasbiy barkamollik kabi harakatlar nazarda tutiladi. YUNESKO kattalar ta'limini XXI asrda «eshiklarni ochuvchi kalit» deb e'tirof etdi. Jahon miqyosida pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, akmeologik kompetentligi va kreativligini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning intellektual resurslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyatning hozirgi rivojlanish darajasi ta'lim oluvchilarda kelajakni rejalashtirish qobiliyati va unga nisbatan javobgarlik hissi, o'ziga va o'z kasbiy qobiliyatlariga ishonchni shakllantirishga qodir bo'lgan yangi tizim– masofaviy ta'lim va oliy ta'limni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tilishi amalga oshirilmoqda. [1]

Mamlakatimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalardagi islohotlarning borishi ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Chunki, har bir jabhaning taraqqiyoti o'sha soha mutaxassislarining bilimi, tafakkuri va malakasi, dunyodagi shu yo'nalishning rivojlanish tendensiyalarini qanchalik o'zlashtirganligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan olganda, mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarining bosh vazifasi ana shunday ko'nikmalarga va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iborat ekanligini inobatga olib, bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida innovatsion ta'lim va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish vazifasi ilgari surilmoqda. Buning uchun esa, raqamli iqtisodiyotning tegishli innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, ular orqali professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida bevosita onlayn muloqot qilishni yo'lga qo'yish, talabalarni mustaqil ta'lim bilan qamrab olishni talab etadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori qabul qilindi. Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni yanada rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri bu ta'lim tizimining barcha bosqichlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan raqamli bilimlarning darajasini oshirish, ta'lim infratuzilmasini takomillashtirish, shuningdek, «Besh tashabbus» loyihasini amalga oshirish doirasida 2022-yilga qadar respublikamizning barcha hududlarida raqamli bilimlarga asoslangan o'qitish markazlarini ochishdir.

Ma'rifatli va rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanib kelayotgan innovatsion texnologiyalarni o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'analaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda O'zbekistonning milliy pedagogik texnologiyasini yaratish lozim. Respublikamizning pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni tatbiq etishga intilmoqdalar.

Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan raqamli iqtisodiyot sharoitida, iqtisodiyotning barcha sohalariga, jumladan, ta'lim sohasiga innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali masofaviy ta'limni joriy etish nafaqat ortiqcha sarf-xarajatlarni kamaytirishga, balki zamonaviy dunyoqarashga va bilimga ega, mustaqil fikrlaydigan, O'zbekiston Respublikasini kelgusida yuqori marralarga ko'tarishga hissa qo'shadigan yetuk kadrlarni shakllantirishga ko'maklashadi.[2]

Jamiyatni isloh qilish va innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayrat shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifani ishonib topshirmoqdamiz.[3:149-153]

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomalarida ta'lim tizimi sohasini tubdan isloh qilish, pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo'lgan, o'z ishida aniq natijalarga erishgan o'qituvchilarga yuqori maosh to'lash tizimini joriy etish, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimini yo'lga qo'yilishi haqida so'z yuritildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda № 1059-son qarori: Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasida O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy axloqiy tamoyillar asosida tarbiyalash, faol fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish, kelajakka ishonch va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirish va boshqa ko'pgina masalalarni hal etib borilishi belgilab qo'yilgan.

Hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarning ma'naviy olamini yuksak darajada shakllantirmasdan, ularni ijtimoiy-axloqiy jarayonlarning ijodkor subyektiga aylantirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda: "Taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi".[4:35] Albatta, yoshlarning har jabhada ijodkorligini shakllantirish o'ziga xos ilmiy-amaliy tamoyillar bilan chambarchas bog'liqdir. Yangi asr boshlarida shiddatli boshlangan intellektual izlanishlar davrida evriologiya, ergonologiya, refleksologiya bilan bir qatorda yuksak texnologiyalarni yaratish g'oyalari, nafaqat an'anaviy ishlab chiqarish, balki insonning ijtimoiy-axloqiy faoliyatlarini o'rganuvchi fan - akmeologiyaning rivojlanishi bilan bog'landi.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "akmeologik kompetensiya", "bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetensiyasi", "bo'lajak o'qituvchining akmeologik kompetensiyasini shakllantirish" tushunchalari yetarlicha o'rganilmagan va ularning nazariy va uslubiy asoslari yetarli ishlab chiqilmagan. Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda "akmeologik pozitsiya", "akmeogramma", "akmeologik madaniyat", "akmeologik bilim" kabi tushunchalar mavjud.

Ushbu muammoni hal qilishning uslubiy asosi bugungi kunda universitet ta'limi kontekstida o'qituvchilarni tayyorlash tizimi uchun asos bo'lgan kompetensiyaga asoslangan yondashuvdir[5]. "Kompetensiya" tushunchasini joriy etishning maqsadga muvofiqligi kasbiy faoliyat sohasi tavsifini birlashtirish, soddalashtirish va lakonizatsiya qilish zarurati tufayli yuzaga keldi. Shu bilan birga, psixologik va pedagogik adabiyotlarda ushbu konsepsiyani "kompetentlik" tushunchasi bilan aniqlash holatlari kam uchraydi. Pedagogika fanida bu masala bo'yicha konsensus hali ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, kompetentlik ma'lum bir shaxsiy, integral xususiyat, simptomlar majmuasi, kompetensiya esa o'ziga xos kasbiy va funksional xususiyatlar to'plamidir. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, kompetentlik asosan bilim, ko'nikma, shaxsiy fazilatlar yig'indisi sifatida, kompetensiya esa tajriba, tayyorgarlik, savodxonlik va kasbiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida tushuniladi. Psixologik-pedagogik asarlarda ushbu tushunchalar hal etilayotgan tadqiqot muammolariga tatbiq etishda turli tadqiqot pozitsiyalarining mavjudligi va ko'pincha tadqiqotda ontologik va tizimli yondashuvlardan foydalanilmasligi bilan bog'liq.

Mahalliy va xorijiy fanlarda ham kasbiy, ham pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyotida turli davrlarda kompetensiya va uning turli jihatlarini o'rganish muammolari bo'yicha yo'nalish asoschilari V.A.Adolf, S.Ya.Batishev, A.A.Verbitskiy, S.B.Elkanov, A.I.Juk, O.L.Juk, E.F.Zir, I.A.Zimnyaya, V.V.Kraevskiy, N.V.Kuzmina, N.V.Kuxarev, A.K.Markova, L.M.Mitina, L.A.Petrovskaya, J.Raven, V.I.Slobodchikov, R.Uayt va boshqa mualliflar shug'ullanganlar. Ushbu yondashuvning mohiyati shundan iboratki, bu uzluksiz umumiy va kasbiy ta'limning uslubiy asosi bo'lib, uning mohiyatini hal qilish uchun normativ va ijodiy qobiliyatlarga ega bo'lgan mutaxassisni tayyorlashga yo'naltirilgan reflektiv-faol universitet ta'limini amalga oshirishdir.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning yetuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandır. Bunda biz Sharq allomalarining «komil inson», Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Barkamol inson» g'oyalarini akmeologiyaning obyekti «akmeshaxs» tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, uning fundamenti Markaziy Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz.

Akmeologiyaning tadqiqot obyekti - bu akmeshaxs bo'lib, obyektiv qonuniyatlarga asoslangan holda kasbkorlikning va ijodiy faoliyatning metodologik, texnologik hamda gumanitar (insonparvarlik) jihatlarini o'rganish jarayonida jamiyat rivojida kasb-hunar moddiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini bilan bog'liq akmeologik muammolari aniqlaydi. Masalan, bozor munosabatlarining rivojlanishida yangi kasb hunarlarni shakllantirish, davr talabiga monand yetuk kadrlarni yetishtirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Globalizatsiya jarayonlariga ijodiy kompleks yondashish, kasbkorlik madaniyati, komillik va mukammallik haqida alloma va mutafakkirlarning qarashlarini tahlil etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos jihatlarni va zamonaviy tajribalari chuqur egallash texnika, texnologiya va axborot madaniyatini o'zlashtirish masalalari ham akmeologiyaning obyektlaridan biriga aylanishi mumkin.

Akmeologiyaning tadqiqot predmeti - akmeshaxsni shakllantirishda ishtirok etadigan kasbiy bilimlar majmuvi bilan axloqiy fazilatlar hamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy institutlar bilimlari orasidagi funksional aloqadorlik bo'lib, muayyan ilm sohasi, majmuaning jabha yoki xususiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Shunday qilib, akmeologiya predmetini insonni yetuklik darajasidagi rivoji bilan chegaralab qo'yish va u o'z rivojida qaysi sharoitlarda optimumga erishadi va uning optimumi qanday bo'ladi, deyishni aniqlash bilan bir qatorda, uning predmetini juda keng tushunish kerak bo'ladi. Bunga turli umumlashmalarning rivoji va ularning rivojida eng yuqori darajaga erishishga imkon yaratuvchi sharoitlarni aniqlash hamda ushbu fanda bazaviy kategoriya sifatida akmening chiqishi va shakllarining keng kontinuumda konkretlashtirishi har bir holatda u yoki bu inson rivojida erishgan cho'qqining belgilarini konkret integrallashtirilishi va obyektivlashtirilishi yoki turli jamoalarning rivojlanishlarida erishilgan cho'qqida akkumulyatsiya qilinishi namoyonligi o'z ifodasini topadi.[6:70]

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqqan holda, «akme» tushunchasini albatta, yuksak cho'qqi, avj nuqta, eng oliy hissiyotlar (A.Maslou), deyish mumkin.

Akmeologiyadagi asosiy iboralardan biri «akmeologik moyillik» iborasi bo'lib, ushbu tushuncha shaxsning intiluvchanlik xossasini anglatadi.

Akmeshaxs - akmeologiyaning asosiy predmeti bo'lib, uning mazmun-mohiyati - insonning har bir kasb-hunari ilm-bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishi

jihatlarini fanlar bilan uyg'unlikda o'rganishdan iborat bo'lib, u insonning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy dunyosida yuksakroq cho'qqilarga, kasbiy kamolotda mukammallik bosqichiga erishish muammolarini o'rganadi.[7:149]

NATIJALAR

Umuman olganda, hozirgi globallashuv davrida jamiyatimiz o'zining yuksak rivojlanish nuqtasi, fuqarolik jamiyatini barpo etishga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni paytda akmeologiyaning asosiy kategoriyalaridan mukammallik, yuksaklik, oliy daraja kabi tushunchalar kundalik turmushda ishlatilib kelingan bo'lsa-da, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy nuqtayi nazardan maxsus ilmiy tadqiqot sifatida to'la o'rganilmagan.

«Akmeologiya», agar ularni hududga moslashtirilsa, insonshunoslikdagi barcha tajribalardan o'zining yuqori samaradorligi va ta'lim berishdagi ayrim qulayliklari bilan ajralib, o'quv jarayonining sifatini pedagogik mahoratdan ozod qiladi va ta'lim-tarbiya jarayonining faqat yaxshi va a'lo darajada bo'lishligini kafolatlashi bilan birga, uni qaytadan tiklash imkonini beradi.

Akmeologiya quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi. Birinchisi, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo qilishda barkamol avlod tarbiyasi katta ahamiyat kasb etadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda sog'lom ijtimoiy-axloqiy muhitni yaratish, ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va e'zozlash, axloqan pok, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis, ilg'or fikrli, salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan yuksak g'oyalari tayyorlash hozirgi paytda ustuvor vazifalardan bo'lmog'i lozim.

Ikkinchisi, zamonaviy tafakkur rivojida akmeshaxs qiyofasiga axloqiy munosabat zarur. Zero, yurt ravnaqi, millat rivoji, barqarorligini akmeshaxslarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, O'zbekistonda barkamol avlod tarbiyasida jismoniy, aqliy, ma'naviy jihatlar kabi uch asosiy jihatga e'tibor berish o'ta muhim va dolzarb masala bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning faol kechishida muhim omillardan hisoblanar ekan, shaxsning intellektual boy, yuksak ma'naviyatli akmeshaxs bo'lib yetishishi «vaqt o'zagi» elagidan o'tgan ma'naviy merosga bog'liqligi yoshlar ongiga singdirib borilishi lozim.

Uchinchisi, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan bir davrda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan bir qatorda yoshlar muammosini respublika oldidagi umumiy vazifalardan ayri holda ko'rib chiqish mumkin emas. Shu bois, yoshlar shaxsining shakllanishi, kamol topishi muammosini o'rganishda akmeologik bilimlardan foydalanish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmog'i lozim.

Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan umrining shu qismini «akme» deb ataganlar. Akme - yunoncha («yuksalish», «cho'qqi») kamolot, yuksalish, yetuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmog'dalar. Bu degani, ularni integrativ kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar. Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning yechimiga olib kelishi mushkul.

Yetakchi faylasuf olim Xatima Shayxova bu borada: «Akmeologiya - zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganishdir. Akmeologiyaning mazmun-mohiyati - insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat».[8:115] deydi.

Oliy ta'lim muassasalarida yangi ta'lim standartlari doirasida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kunda har-bir professor-o'qituvchidan talabning iqtidori, va ijodiy salohiyatini to'la namoyon etish va taraqqiyotini ta'minlovchi har bir omilning o'rnini ko'rsata bilishni taqozo etadi. Bu yangicha ta'limdagi innovatsion yondashuvlardan biridir. Har bir talaba o'z shaxsiy akmesini aniqlab olishi uchun unda o'sha tanlagan ixtisosligiga nisbatan kuchli undovchi motivlar, hayotda esa muvaffaqiyatlarga erishish motivi yoki yutuqlarga erishish ehtiyoji kuchli rivojlangan bo'lishi lozim.

PEDAGOGIKA

Yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Bu esa pedagog kadrlar tayyorlash, modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Bo'lajak o'qituvchilarda akmeologik pozitsiyani shakllantirib borishning asosiy mazmuni ularda kasbiy tayyorgarligini shakllantirib borilishidir.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev o'g'itlari asosida mamlakatimizda keng miqyosda professional kadrlar tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Bu ko'rsatma nafaqat davlat rahbariyati xodimlari, balki fuqarolik jamiyatining barcha institutlari, olimlar, nodavlat, notijorat tashkilotlar, o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, oilalar oldiga mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi.

Rivojlangan mamlakatlarning asosiy takomillashuv mexanizmi raqobat bo'lib, u insonni doimo yuksaklik, komillikka, barkamollikka undaydi. Bu jihat akmeologiyada milliylik va umuminsoniylikning o'zaro dialektik munosabatlarining shakllanishiga olib keladi. Demak, keskin raqobat sharoitida muntazam o'sib borayotgan aholini boqishga faqatgina bilimga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Bilimga asoslangan iqtisodiyotni piramida shaklida ko'rsatsa bo'ladi. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) uning negizida fan va ta'lim yotishini ko'rsatgan. Lekin fan va ta'limni kim yaratadi? Agar ota-onalar jamiyatga sog'lom va qobiliyatli shogird va o'quvchilarni yaratib bersalar, ularga innovator olimlar, injener texniklar va professor o'qituvchilar ta'lim beradilar.

"Hamma joyda zamonaviy korxonalar ochilyapti, investitsiya loyihalari amalga oshirilyapti. Ularni yuritadigan salohiyatli kadrlar kerak bizga. Shuning uchun ham muallim va maktablarga, ta'lim sifatini yaxshilashga alohida e'tibor beryapmiz. Salohiyatli kadrlar raqobatni paydo qiladi. Qayerdaki raqobat bo'lsa, o'sha joyda rivojlanish bo'ladi", [9] – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yurtboshimizning shu g'oyalari ayni paytda keskin aytilgan ko'rsatma edi. Bu bilimga asoslangan iqtisodiyot modelidir. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, jamiyatimiz ilm-fani oldiga Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasida yangicha yondashuvlarni izlab topish vazifasi qo'yilganligini anglaymiz. Ana shunday yondashuvlarimiz natijasi esa akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishi bo'ldi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad - mamlakatimiz kadrlar tayyorlash milliy modelini yanada takomillashtirishdan iboratdir.

Akmeshaxs taraqqiyotida ishtirok etuvchi ijtimoiy muhit oddiy odamning muhitidan o'zining tolerantligi bilan farq qiladi. Bu nima degani? Bu shuki, akmeshaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishuvida hamkorining irqi, jinsi, tili, dini, siyosiy e'tiqodi yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar u bilan sog'lom raqobat muhitida faoliyat olib boradi va atrofdagilari bilan do'stona munosabat o'rnatadi.

MUHOKAMA

Bugungi XXI asr avlodi har jihatdan bilimdon, aqlli, qobiliyatli, odobli, har qanday murakkab vazifalari bajarishga qodir bo'la oladi, deb ishonch va g'urur bilan e'tirof etadilar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Xotira va qadrlash kuni Prezidentimiz yoshlarning salohiyati, shijoati, qobiliyatini yuksak baholab, ota-bobolar boshlagan ishlarni, ezgu maqsadlarga erishish uchun munosib farzand bo'la olishlariga, jamiyat rivojida salmoqli o'rin egallashlariga yuksak ishonch bildirdilar. Kelajagimiz egasi yoshlarimiz har jihatdan bilimli, axloqiy yetuk, shaxs sifatida mukammal, zamonaviy texnika va texnologiyani chuqur egallagan mutaxassis bo'lishlari uchun hamma imkoniyatlar mavjud.

XULOSA

Akmeshaxs shakllanishining omillaridan yana biri - bu sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasidir. Inson salomatligini yaxshilash tabiiy muhit bilan bir qatorda ijtimoiy muhitning holati bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, inson sog'lig'i davlat mulki hisoblanadi. Shuning uchun ham insonning biosotsial salomatligini asrash yo'li orqali ijtimoiy muhit holatini mo'tadil saqlashga intilish, shular asosida akmeshaxslarni shakllantirish imkoniyatini qo'lga kiritish davlat ahamiyatiga molik vazifalardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni akmeologik pozitsiyalarini shakllantirish orqali ularni o'quv jarayonidagi faolligini oshirishda, tanlagan kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini uyg'otishga, jamiyatdagi turli islohotlarga o'z munosabatini bildira olishiga va eng asosiysi o'z taraqqiyoti bosqichida ma'lum yutuqlarni qo'lga kiritish olish imkoniyatiga ega bo'lishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Структура ИКТ–компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО. – Гамбург, 2011.
URL: <http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 28.04.2020 йилдаги ПҚ-4699-сон.
<https://lex.uz/docs/4800657>
3. Хақимова М.Ф. Ахборот таълим муҳитида инновация ва рақамли технологияларнинг жорий этилиши. Yangi O'zbekistonda pedagogika fanini innovatsion rivojlantirish istiqbollari: nazariya va amaliyot. Scientific Library of Uzbekistan. – Б. 149-153. www.ares.uz
4. Миллий тикланишдан миллий юксалиш сари. – Тошкент, 2019. – Б. 117.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagob kabi muqaddasdir. Т.3. - Т.: «O'zbekiston», 1996. –В. 34.
6. Зимняя, И. А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования. Высшее образование. – 2003. – № 5. – С. 34–42.
7. Tillayeva G.H. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi. - Т.: Falsafa va huquq instituti, 2009. – В. 149.
8. Shayxova X.A. Ma'naviyat – kamolot ko'zgusi. - Т.: G 'afur G 'ulom nomidagi NMIU, 2009. – В. 115.
9. <https://uza.uz/uz/posts/Тараққиётга илм-фан ва салоҳиятли кадрлар билан эришилади>.